

AMALIYOTCHI-PSIXOLOG VA OTA-ONA HAMKORLIGIDA TA’LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bekkiyeva Nargiza Rajabboyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o‘qituvchisi.

+998996679021 nargizarajabboyevna@gmail.com

Annotatsiya: Maqola matnida amaliyotchi-psixolog va ota-ona hamkorligida, o‘quvchilarni ta’lim jarayonini o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish, ularning individual psixologik xususiyatlarini, imkoniyatlarini inobatga olish lozimligi yoritilgan. Ta’lim tizimida psixologik xizmat faoliyat turidan unumli foydalanish, pedagog-psixolog bilan hamkorlikda bolaning ruhiyatida ijobiy xususiyatlarni shakllantirishning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘z: ta’lim-tarbiya, faoliyat, maktab, oila, shaxs, akseleratsiya, psixologik xizmat, pozitsiya, psixokorreksiya, individual, kommunikativ, .

Mamlakatimizda yoshlarning ta’lim-tarbiya masalalariga, maktab, oila, mahalla hamkorligiga, ular o‘rtasidagi pedagogik-psixologik faoliyat jarayonlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu o‘rinda yurtimizda ham, ta’lim jarayonida psixologik xizmat barcha rivojlangan mamlakatlardagi singari psixologik xizmat muammosining qay uslubda va qanday yo‘nalishda bartaraf etilayotganligini o‘rganish asosiy masalaga aylanmoqda. Binobarin, Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassalaridagi jarayonlarni o‘rganmay turib, ulardagи psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr-mulohaza yuritib bo‘lmaydi.

Psixologik xizmat AQSHda 1800-yillardan boshlab rivojlanana boshladi. AQSHning birinchi amaliyotchi psixologlari o‘z-o‘zini tarbiyalash muammosini o‘rgangan eksperimental psixologlar edilar. 1985-yilda Fransiya pedagog-psixologlarining funksiyalari aniqlab berildi. Pedagog-psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo‘lidan kelgan barcha ishlarni qilishi kerak, bunda u bu ishlarga o‘qituvchilarni va ota-onalarni ham jalb etishi mumkin. Pedagogik psixolog o‘z ishida lozim topsa, maktab va oila tarbiyasiga qarshi chiqishi mumkin, deb maxsus ta’kidlagan. Amaliyotchi psixolog o‘z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradi.

O‘zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedalogiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga to‘g‘ri keladi. 60-70 yillarda O‘zbekiston Pedagogik Fanlar Ilmiy Tekshirish instituti xodimlari P.P.Zimin, V.A.Tokareva, M.Sh.Rasulova, M.Dadajonovlar tomonidan maktabda psixologik xizmat tatbiqini o‘rganishga oid qator izlanishlar, amaliy tadbirlar olib borildi. 1989-yilda O‘zbekiston amaliyotchi

psixologlarining yetishmasligi sababli Nizomiy nomli TDPIda amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi. O’zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida M.G.Davletshin, G’.B.Shoumarov, E.G’.G’oziyev, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, Z.T.Karimova, Z.T.Nishanova, F.S.Ismagilova, SH.R.Baratov, E.N.Sattarov, N.S.Safayev, F.I.Haydarov, X.Jalilova va boshqalar hissa qo’shganlar.

Bugungi globallashuv jarayonida ota-onalarning maktab amaliyotchi psixologlari bilan hamkorlikda ishlashni taqozo etadi. Sababi, akseleratsiya jarayonining yuzaga kelishi. Akseleratsiya (lotinchcha acceleratio-tezlashish) tirik organizmning jadal rivojlanishidir. Bugungi kun bolalari jismoniy rivojlanishi 150 yil ichida oldingi tengqurlariga nisbatan fiziologik jihatdan ancha rivojlangan. Shu boisdan har bir ota-onadan farzandini ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanganda, maktab amaliyotchi psixologlari bilan maslahatlashgan holda albatta individual psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Maktab amaliyotchi psixologlari o’z kasbida faoliyat olib borish jarayonida quyidagi ishlarni tashkil etadi:

- ota-onalarga o‘quvchining individual psixologik xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, jamoa bilan o‘zaro munosabati, bunda o‘quvchining yosh, jins, shaxsiy tipologik xususiyatlari kamchiligi yuzasidan ilmiy-amaliy ma’lumotlar berish;

- Ota-onalar yig‘ilishlarida, metod birlashma majlisida, pedagogik kengashlarda, qatnashish orqali ota-onalar hamda o‘qituvchilarning psixologik bilimlarini oshirish;

Maktabgacha bolalikda u yoki bu sabaga ko‘ra yoshiga muvofiq, to‘laqonli rivojlanmagan ko‘plab bolalar uchun maktabga kelish murakkab sinov bo‘lishi mumkin va ular qator muammolarga duch keladi.

Bu kabi alohida qiyinchiliklarning pedagogik-psixologiya fanida to‘rtta guruhi farqlanadi.

- oilada noto‘g‘ri tarbiya (haddan tashqari g‘amxo‘rlik, ortiqcha talabchanlik, egosentrik tarbiya)

- tarbiyasidagi bolaga psixologik savodasiz ta’sir ko‘pincha o‘quvchini noadekvat baholashga olib keladi.

- kommunikativ malaka va ko‘nikmalar yetishmasligi;

- o‘quvchi pozitsiyasi shakllanmaganligi.

Bolani jismonan, ma’nан, ruhan yetuk inson qilib tarbiyalashda oila va maktabning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir oiladagi pedagogik madaniyatni takomillashtirish zarur. Maktabga boruvchi bolalar jismonan baquvvat, sog‘lom, fikri teran, tevarak atrofdagi narsa va

hodisalar to‘g‘risida oddiy mushohada qiladigan. “Yaxshi” bilan “Yomon”ni, “Gunoh” bilan “Savob”ni ajrata oladigan bo‘ladi. Aynan shu yoshdagi ba’zi bolalarda esa bunga teskari bo‘lgan xususiyatlarni uchratish mumkin. Bunday notekislikka asosiy talab kattalarning e’tiborsizligi yoki bola tarbiyasi bo‘ycha yetarli bilimga ega bo‘lmasligidir.

Psixokorreksiyaning maqsadini olib, uni uch guruhgaga ajratish mumkin. Bular o‘z navbatida maktab sharoitida amaliy psixologik yordam ko‘rsatish turini belgilash jarayoni samaradorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi:

- maktab o‘quvchisini psixik rivojlanishini ta’minlovchi psixokorreksiya;
- maktab o‘quvchisining o‘yin, o‘quv va mehnat faoliyatida kuzatiladigan nuqsonlarini tuzatishga qaratilgan psixokorreksiya;
- oilaviy munosabatlarda kuztilgan muammolarni tuzatishga (muloqot formasi, o‘zaro munosabatlari xarakteri va shunga o‘xshash) qaratilgan psixokorreksiya.

Xulosa. “Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir”, -degan edi buyuk fiziolog I.P.Pavlov. Shuningdek, har bir insonning o‘zigagina xos imkoniyatlari mavjud. O‘quvchilarning shaxsiy muammolariga yechim topish, ularning ta’lim-tarbiyadagi nuqsonlarni oldini olish yuzasidan yordam ko‘rsatish zarur. Farzandlar ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlarda korreksion ishlarni amalga oshirish, nizoli vaziyat va psixologik xolatlarni birgalikda tahlil kilish va amaliy tavsiyalarni olish lozim.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xodjayeva Ozoda Rustam qizi Ota-onalar bilan ishslashda psixokorreksion faoliyatning o‘rnini [file:///c:/users/admin/downloads/94-98%20\(1\).pdf](file:///c:/users/admin/downloads/94-98%20(1).pdf)
2. X.I.Ibragimov, U.A.Yo‘ldoshev, X.Bobomirzayev. Pedagogik-Psixologiya. O‘zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nshriyoti Toshkent 2009.
3. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. Toshkent “Ijod press” nashriyoti, 2019. [1.6,286]
4. Ш.Р.Баротов Психологик хизмат дарслек “Наврўз” нашриёти.